



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-fevral 2022

Ma'qullandi: 05-fevral 2022

Chop etildi: 10-fevral 2022

## KALIT SO'ZLAR

yo'zuv madaniyati,  
iyeroglif, ilm-fan, turkiy

Yer yuzidagi barcha xalqlarning faxr hissini uyg'otadigan, oynai hayotini aks ettiruvchi tarjimai holi- bu tildir. Har bir millat o'z tili, dini, urf-odatlarini, madaniy yodgorliklari, asor-u atiqalari bilan faxrlanib yashaydi. O'z tiliga ega xalqni hech kim ma'naviyatidan judo qila olmaydi. Jahon mamlakatlari sahnalarida turib ona tilida baralla nutq so'zlash, har bir xalqning yuragida o'z tiliga bo'lgan mehr hissini yanada oshiradi. Har bir xalqning o'z tarixini o'rganishi ajdodlari tomonidan yaratilgan asarlarning ahamiyati bilan bog'liq hisoblanadi. Bu asarlarning barchasi shu til uchun muhim hisoblangan yozuvda yaratiladi. Shu bois, qadimgi dunyodan to bugungi kunga qadar o'ziga xos til va yozuv madaniyati yuzaga kelgan.

## QADIMGI DUNYODA TIL VA YOZUV MADANIYATI

Orziqulova Gulbahor<sup>1</sup>

To'rayev Diyorbek Otabek o'g'li<sup>2</sup>

<sup>1</sup> JDPI akademik litseyi o'qituvchisi

<sup>2</sup> JDPI akademik litseyi o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6018178>

## ANNOTATSIYA

*Bilamizki insoniyat paydo bo'lgandan imo-ishora hamda nutq rivojlangan va bu tufayli ilk fikrlar almashinuvi shakllangan. Ushbu maqolada qadimgi dunyoda muloqot, til ko'nikmalari ham yozuvning shakllanishi va qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan.*

Manbalardan ma'lumki, O'zbekistonda tilning vujudga kelishi bir necha ming yillar bilan bog'liq hisoblanadi. Yurtimizning eng qadimgi mahalliy tillari haqida yozma manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Yozma manbalarda yozilishicha, turkiy, fors, arab va eski o'zbek tillaridan foydalanilgan. Ular ma'muriy, adabiy, mahalliy til vazifasini bajarganligi qayd etilgan.

“Oromiy tili milodning boshlarida G'arbiy osiyoning asosiy og'zaki nutqiga aylangan. Oromiy yozuvi g'arbiy-som yozuvlaridan biri- oromiy mil.avv. – ming yillik boshlarida finikiy yozuvi asosida shakllangan konsanant yozuv. Mil. av. VI-V asrlarda oromiy harfiy yozuvi keng tarqaladi.”<sup>1</sup>

<sup>1</sup> F.Sultonov. Qadimgi dunyo tarixi. “Sharq” nashriyoti. Matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: 2011 90-157 bet.



Tarixiy manbalardan ma'lumki, oromiy yozuvida so'zlar alohida-alohida ajratib yozilgan. Bu uning o'ziga xosligidan dalolatdir. Urart tili- o'lik tillardan biri hisoblanib, hozirda foydalanilmaydi. Bu til mil.avv. IX-VI asrlarga mansub o'yma yozuvlar (mixxat) orqali ma'lumdur. Hozirgi kunda Van ko'li atrofiga, sharqroqda Urmiya ko'ligacha, qisman Armaniston hududlarida foydalaniladi. "Urartlar Ossuriya, Mesopotamiya, Xetlar madaniyati asosida yuksak madaniyat yaratganlar. Unda yaratilgan mix-ponasimon yozuvda bitilgan ma'lumotlar arxeologlar tomonidan Urartuning ko'plab joylaridan topilgan."<sup>2</sup>


Hozirgi kunda urart tiliga yaqin qarindosh deb faraz qilinayotgan xurrit tili urart tili bilan birga alohida til oilasini tashkil etadi. Xurrit tili yozuvi akkad-mixxatining soddalashtirilgan tizimidan iborat bo'lgan.

Osiyoning eng qadimiy mamlakatlaridan bo'lgan Xitoy ham o'ziga xos til va yozuv madaniyatiga ega, tarixiy ildizlari buyuk davlat sanaladi. Qadimgi Xitoy yuksak ilm-fan va madaniyat o'chog'idir. "Xitoyliklar bundan 4-3,5 ming yillar ilgari o'z yozuvlarini yaratib,

undan hozirgacha foydalanib kelmoqdalar." Ushbu yozuv xususida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xitoy yozuvi hisoblanmish iyeroglifda har bir iyeroglif bir so'zni ifoda etgan. Agar daraxt ma'nosini ifodalamoqchi bo'lsalar bir shoxchadan, o'rmon ma'nosida ikki shoxchadan, chakalakzor demoqchi bo'lsa uch shoxchadan foydalanganlar. Bu yozuv mil.avv. 2-mingyillikda kashf qilinganligi qayd etilgan.

"Xett tili- o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimgi hind-yevropa tillaridan biri, xatt, palayya, lidiya va boshqa tillar bilan xett-buriy tillari (anotoliya tillari) guruhini tashkil etgan o'lik tildir".

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xett tilida so'zlashuvchi aholi qadimgi Anatoliyaning markaziy va shimoliy qismlarida yashagan. Xett tili leksikasining e'tiborli jihati, unda xatt, akkad, xurrit tillaridan o'zlashgan so'zlar, terminlar ko'p bo'lgan.



"Etrusklar mil. Avv. VIII-VII asrlarda yaratgan yozuv unutilib, keyinchalik

<sup>2</sup> O'sha joyda. 88-89 betlar.

finikiya yozuvi asosidagi lotin alifbosi tuzildi “.<sup>1</sup>

Ushbu til Rim davlatigacha bo’lgan Italiyaning qadimgi aholisi tomonidan foydalanilgan. Etrusk tili O’rta dengiz tillari guruhiga mansub bo’lsada, biror til bilan genetik yaqinligi, qarindoshligi to’liq aniqlanmagan. Appennin yarim oroli aholisi tomonidan ishlatilgan ushbu til I asrda lotin tili tomonidan siqib chiqariladi. Etrusk tili toponimlaridan eng yirigi va eng muhimi Zagreb (hozirgi Xorvatiya) da saqlanayotgan mumiyo pardasidagi yozuv (340 satr) sanaladi. Etrusk tili yodgorliklari Italiyaning Etruriya, Kampaniya, Latsiya kabi qadimiy viloyatlaridan hamda shimoliy Afrika (Karfagen)dan topilgan. Ushbu yodgorliklar

g’arbiy Yunon alifbosi asosida yaratilgan etrusk alifbosida o’ngdan chapga qarab yozilgan. Lotin yozuvi va Markaziy hamda shimoliy Italiyadagi boshqa yozuv tizimlari uchun etrusk yozuvi asos vazifasini o’tagan.

Ikki daryo oralig’ida vujudga kelgan, ilk sivilizatsiyalardan biri bo’lmish Mesopotamiyada til va yozuv muhim ahamiyatga ega bo’lgan. “Mesopotamiyada ilk yozuv mil. Avv. 4- mingyillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf qilingan”.<sup>2</sup>

Mesopotamiyaliklar o’zlarining savodxonligi bilan misrliklardan ajralib turgan. Mesopotamiyada hatto cho’ponlar ham qo’ylarni sanashni bilgan.

Миххат белгиларининг ривож

Эрамадан олдинги IV минг йиллик	Эрамадан олдинги III минг йиллик	Эрамадан олдинги II минг йиллик Тезхат		Нима тасвирланган	Маъноси
		Бовил	Ассирия		
				ОЕК	Юрмоқ, турмоқ, келтирмоқ
				Чай қул	Чай
				Козикча-бўйрага қоқиш учун	Козикча, қурмоқ
				Юлдуз	Осмон, ҳудо
				Балиқ	Балиқ

Nil daryosining shiddatkor oqimlarini jilovlagan misrliklar o’zlarining 750 iyeroglifdan iborat yozuvlarini yaratganlar. Bu yozuvda har bir belgi o’ziga xos tushunchani foda etgan. Quyosh ma’nosini ifodalash uchun doira chizilib o’rtasiga bitta nuqta qo’yilgan,

kamon ko’targan odam tasviri jangchini anglatgan.

Misr iyeroglifida ismlar va nomlar rebus shaklida yozilgan. Ammo bu tilda unli harflar bo’lmagan. Misrliklar tilida bir undosh va unidan tarkib topgan bir bo’g’inli so’zlar bo’lgan, lekin unli tovush yozuvda

<sup>1</sup> F.Sultonov. Qadimgi dunyo tarixi. “Sharq” nashriyoti. Matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: 2011 391 bet.

<sup>2</sup> O’sha joyda 85 – bet.



ko'rsatilmaganligi bois, harfga o'xshash shaklda ifoda etilgan.

"Hind madaniyati mil. Avv. 3-2 mingyillikdan ancha yuksaladi. Mil.avv. 2- mingyillikda iyeroglif yozuvi yaratildi. Uning o'qilishi olimlar tomonidan kashf qilinmagan. Hozirgi alifbosi mil. avv. VII-VI asrlarda vujudga kelgan".<sup>1</sup>


Yana bir qadimgi tillardan biri- bu hind tilidir. Bu til Hindiston yarimorolining shimoliy va markaziy qismlarida tarqalgan bo'lib, qadimgi hind tili hozirda malum bo'lgan hind -yevropa tillarining dastlabki vakili hisoblanadi. Bu til Hindiston bo'ylab tarqalish jarayonida qadimgi hind tili substrat tillarning bir qancha xususiyatlarini o'ziga singdirib oladi.

"Qadimgi hind tilida xronologik jihatdan va lahjaviy asosiga ko'ra bir -biridan farqlanuvchi ikki til mavjud. Hindistonning shimoliy g'arbida veda tili va shimoli- markaziy qismida Sanskrit".<sup>2</sup>

Qadimgi hind tilining ajralmas qismi hisoblanib, mashhur "Panchatantra", "Brihatkatha", "Shukasaptati" kabi asarlar yaratilishida asos bo'lgan Sanskrit tili qadimgi hind xalqining muqaddas tilidir. "Sanskrit-qadimgi hind lahjalari asosida shakllangan va mil. avv. I- asrda shimoliy Hindistonda

tarqalgan. Sanskritning bir necha turi bor: epik Sanskrit("Mahabharata"va 'Ramayana"tili),klassik Sanskrit (qat'iy me'yorga tushirilgan til mil. avv. IV- asrda yaratilgan Panini grammatikasida o'z ifodasini topgan), budda (yoki gibrid) sanskritlar budda dini bilan bog'liq adabiyot tili, jayn Sanskrit (jayn diniga oid adabiyot tili), veda tili va veda Sanskrit. Sanskritdagi matnlarni yozuvda ifodalash uchun asli brahmi yozuvidan kelib chiqqan bir qator alifbolardan (kharo'shthi,gupta,nagari, kushon yozuvi) foydalanilgan".<sup>3</sup>

Til va yozuv tarixi haqida asl malu'motlarni izlab topish bugungi kun uchun muhim hisoblanadi.Biz o'z tilimiz tarixini o'rganib chiqish orqali ajdodlarimiz kim, ular bu til orqali qanday ishlarni amalga oshirganliklarini, tilimizning aynan qadimgi davrlarda qanday ahamiyatga ega bo'lganligini va bugungi kundagi o'rnini anglab yetamiz. Bugungi kunda o'zbek tili dunyodagi eng boy tillardan biri bo'lib, u o'zining so'z boyligi bilan bilan ajralib turadi.Biz qadimgi dunyo til va yozuvini o'rganish orqali kelajak avlod tarixi uchun tamal toshini qo'ygan bo'lamiz va o'z tariximiz bus - butunligini taminlaganligimizni his etamiz.



1 F.Sultonov. Qadimgi dunyo tarixi. "Sharq" nashriyoti. Matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: 2011 92 bet

2 O'sha joyda 151 bet



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kosven O.M. Ibtidoiy madaniyat tarixi ocherklari. T.: O'zbekiston. 1960,
2. O'zbekiston milliy insklapediyasi. 7-tomi
3. M.O.Kosven. Ibtidoiy jamiyat tarixidan ocherklar. T.: O'zbekiston. 1960